

# “Musiqali teatr san’ati” kafedrası

**Kafedra mudiri:**



**USNATOV RASHID JAKSILIKOVICH**

20 dan ortik makolalar muallifi, dotsent

☐ **Qabul kunlari:** Seshanba, Payshanba 14:00 – 17:00

☎ **Telefon:** 71 230 28 34

☐ **e-mail:**

**Kafedra qisqa tarixi:**

«Musiqali teatr san'ati» kafedrasini 1958 yil tashkil topgan. Kafedrada xalq artistlari R.Hamroyev, SH. Ma'zumova, R.Sayfuddinov, O.Abdurazzoqov, S. Po'latov, M. Uzoqov, V.N. Sundukova, B.Ixtiyorov, U. Zufarov, V.P. Volodchenko, G.Muxammedova, mashhur dirijyorlar N.Xalilov, J. Ortiqov va boshqa ko'plab ustoz san'atkorlar, professor-o'qituvchilar faoliyat ko'rsatgan. Hozirda ular faoliyatini B.Nazarov, N.Qobilov, SH.Muhammadiyev, R. Usnatov, E.Yorbekov, F.Farmonov, E. Xushvaqto'v, U. Rasulov, B. Xusanov, O.Qudratov kabi professor – o'qituvchilar davom ettirmoqdalar.

Kafedraning yarim asrdan ortiq faoliyati davomida ko'plab xalq sevgan san'atkorlar yetishib chiqqan. O'zbek teatr san'atining durdona asarlariga aylangan musiqali spektakllar sahnalashtirilgan. S.Abdulla va T.Jalilovning «Tohir va Zuhra», Hurshidning «Layli va Majnun», Komil Yashinning «Alpomish», «Ravshan va Zulxumor», Hamzaning «Maysaraning ishi», S.Axmadning «Ufq», U.Gadjibekovning «Arshin mol-olon», G.Kanchelining «Xonuma», U.Azim, B.Lutfullayevning «Alpomishning qaytishi», R.Muhammadjonovning «Aka-uka sovchilar» kabi asarlari shular jumlasidandir.

So'nggi yillarda kafedra zamonaviy musiqali teatr dramaturgiyasining laboratoriyasiga aylanmoqda. Dramaturg va bastakorlar kafedra professor-o'qituvchilari bilan xamkorlikda zamonaviy ruhdagi, yoshlar xayotiga bag'ishlangan asarlar yaratib saxnaga olib chiqmoqdalar. Masalan: K.Raxmanov va O.Turemuratovaning «O'lim jazosi», N.Qobil va B.Lutfullayevning «To'da», «Oriyat» kabi musiqali dramatik asarlari kafedra o'qituvchilari tomonidan talabalar ishtirokida sahnalashtirildi. Kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar o'quv qo'llanmalar yozib kitob holida chop ettirishdi va bu jarayon uzluksiz davom ettirilmoqda. «Teatr» jurnali va boshqa matbuot vositalari, shuningdek xorijiy nashrlarda kafedra a'zolarining ko'plab maqolalari va ilmiy-metodik ishlari e'lon qilinmoqda.



**Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari:**

- 60211100 – Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi)
- 60211200 – Rejissyorlik (musiqali teatr rejissyorligi)

**Magistratura mutaxassisliklari:**

- 70211101 – Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi san'ati)
- 70211201 – Rejissorlik (dramatik teatr rejissorligi)

**Kafedrada o'qitiladigan fanlar:**

“Aktyorlik mahorati”,  
“Grim”,  
“Rejissura”,  
“Sahnaviy asarning xatti-harakatli taxlili”,  
“Aktyorning ijodiy guruh bilan ishlashi”,  
“Rejissyorning ijodiy guruh bilan ishlashi”,  
“Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi”

**Magistraturada o'tiladigan fanlar:**

“Aktyorlik maxorati”,  
“Saxnaviy asarning xatti-harakatli taxlili”,  
“Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi”,  
“Obraz ustida ishlash”,  
“Sahnaviy makon kompozitsiyasi”,  
“Rejissyorning spektakl ustida ishlashi”,  
“Musiqali teatrda rejissura”



**Kafedraning professor-o'qituvchilar tarkibi:**

1. Sherzod Muhammadiyev – Kafedra mudiri, dotsent
  2. Nasrullo Qobilov – Professor
  3. Ernazar Yarbekov – Dotsent
  4. Bahodir Nazarov – Dotsent
  5. Rashid Usnatov – Dotsent
  6. Farhod Farmonov – Katta o'qituvchi
  7. Eldor Xushvaqto'v – Katta o'qituvchi
  8. Xusanov Bobur – O'qituvchi
  9. Umid Rasulov – O'qituvchi
  10. Qudratov Orif – O'qituvchi
  11. Nurmanova Barno – O'qituvchi
  12. Fayoz Turg'unboyev – O'qituvchi
- Ichki o'rindoshlar:
1. Ramziddin Qodirov – Dotsent
  2. Habibullo Qobilov – Dotsent
  3. Ma'mur To'rayev – Dotsent
  4. Olimjon Dadamirzayev – Dotsent
  5. Ilyos Nusurov – O'qituvchi
- Jo'rnavozlar:
1. Vafayeva Iroda – Jo'rnavoz
  2. Abramova Ekaterina – Jo'rnavoz
  3. Isanberdina Alfiya – Jo'rnavoz
  4. Xaitova Nasiba – Kabinet mudiri

**Kafedrada bajarilayotgan davlat va chet el grantlari:**

Kafedrada professor – o'qituvchilardan H.Qobilov British consul, Goldsmiths hamda O'zDSMI hamkorligida Creative Spark loyhasi a'zosi.

Dotsent E.Yorbekov TATU universiteti qoshida BV-Atex-2018-251 – sonli grant a'zosi.

**Kafedraning ilmiy ishlari (oxirgi 5 yilda chiqarilgan darsliklar, monografiyalar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati):**

Usnatov Rashid Jaksilikovich, Aktyorlik mahorati, 2019 yil  
Yarbekov Ernazar Xolmirzayevich, Aktyorlik mahorati (1 kurslar uchun), 2019 yil

Yarbekov Ernazar Xolmirzayevich, Aktyorlik mahorati (2 kurslar uchun), 2019 yil

Yarbekov Ernazar Xolmirzayevich, Aktyorning mikrofon bilan ishlashi, 2019 yil

Muhammadiyev Sherzod Bobomurodovich, Aktyorlik maxorati (Musiqali teatr aktyorligi uchun) (1-kurslar uchun) o'q., 2019 yil

Usnatov Rashid Jaksilikovich, Aktyorlik maxorati (o'quv qo'llanma), 2019 yil

Usnatov Rashid Jaksilikovich, Aktyorlik maxorati (o'quv qo'llanma) (qoraqalpoq tilida), 2019 yil

Qobilov Nasrullo Kuchkarovich, Muhammadiyev Sherzod Bobomurodovich, Aktyorlik mahorati, 2021 yil

Usnatov Rashid Jaksilikovich, Badiiy asarning sahnaviy talqini va tahlili, 2022 yil

Muhammadiyev Sherzod Bobomurodovich, Aktyorlik mahorati, 2022 yil  
Yarbekov Ernazar Xolmirzayevich, Sahna nutqi (o'zbek mumtoz she'riyati), 2023 yil

#### **Kafedraning ilmiy va amaliy xamkorligi:**

Bizning kafedra zaruriy xollarda soha bo'yicha tashkilotlarning moddiy –texnika bazasidan foydalanadi. Bunga ("O'zbek teatr") Ijodiy ishlab chiqarish boshqarmasi ko'maklashadi; quyidagi ijodiy tashkilotlar bilan aloqada bo'lamiz:

- 1) Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri
- 2) Viloyat teatrlari
- 3) Respublika konsert zallari;
- 4) "Diydor" studiyasi
- 5) Satira teatri
- 6) Operetta teatri
- 7) TV hamda radio

#### **Kafedraning xalqaro xamkorligi:**

- YE.Vaxtangov nomli davlat akademik teatri qoshidagi B.Shukin nomidagi teatr instituti.
- O'zbekistondagi Britaniya Kengashi yordamida Britaniyaning Rouz Bruford kolledji.

#### **Kafedraning korxon va tashkilotlar bilan xamkorligi:**

- Alisher Navoiy nomidagi Davlat Akademik katta teatri.
  - O'zbek Milliy Akademik drama teatri.
  - O'zbekiston Rus akademik drama teatri.
- Toshkent davlat musiqiy teatri (Operetta).
  - O'zbek davlat drama teatri.
- Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat musiqali teatri.
  - Buxoro viloyat musiqali drama teatri.
  - Andijon viloyati musiqali drama teatri.